

Urganch davlat universitetida o‘quv adabiyotlarini  
ekspertizadan o‘tkazish va nashr etishga tavsiya berish  
jarayonida elektron platformadan foydalanish  
Tartibiga 3-ilova

### O‘quv adabiyotlarini baholash mezonlari

T/r	Baholash mezonlari	Mezonlar bo‘yicha talablarning bajarilishiga qo‘yiladigan ballar (Jami. 100 ball)	Izoh
1.	O‘quv adabiyotining ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassislik shifri, nomi va ixtisoslikka mo‘ljallanganligi hamda o‘quv reja va fan dasturlariga to‘la mos kelishi. Boblar, bo‘lim va mavzularning muayyan izchillikda voritilishi	<b>20 ball</b>	
2.	O‘quv adabiyotida jahon ilm-fani, texnika va texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlarini inobatga olinganligi, uning ahamiyati ifodalanganligi, soha va fanga oid milliy va xorijiy tajriba va ma'lumotlar mantiqiy bir tizimda bayon etilganligi	<b>15 ball</b>	
3.	O‘quv adabiyotida nazariy va amaliy ma'lumotlar maqbul, puxta, ravon, ijodiy va qiziqtiruvchan shaklda ifoda qilinganligi	<b>15 ball</b>	
4.	O‘quv adabiyoti asosiy tushuncha va xulosalarning ta’riflari nihoyatda aniq va ravshan yozilganligi, atamalarning umumiyligiga erishilganligi	<b>15 ball</b>	
5.	O‘quv adabiyotida bilim oluvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olinganligi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi, mustaqil ta’lim olishga qiziqish uyg‘otishi	<b>10 ball</b>	
6.	Adabiyotlar ro‘yxatini yangilanganlik darjasи (2000 yildan keyin chop etilgan mahalliy va xorijiy o‘quv adabiyotlar)	<b>5 ball</b>	
7.	Mavzulardan so‘ng qisqacha xulosa, nazorat va muhokama savollari (kamida 8-10 ta), tayanch iboralarining mavjudligi	<b>5 ball</b>	
8.	O‘quv adabiyotida muallif tomonidan doktorlik (DSc), nomzodlik (PhD) va magistrlik dissertatsiyasidan foydalanganligi	<b>5 ball</b>	
9.	Glossari (izohli so‘zlar) mavjudligi va uni bayon etish darjasи	<b>5 ball</b>	
10.	O‘quv adabiyotining mazmunan tugallanganligi	<b>5 ball</b>	

**Xulosa:** ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassislik shifri, nomi va ixtisoslikka mo‘ljallanganligi hamda o‘quv reja va fan dasturlariga to‘la mos kelishi, chop etish (adadi va moliyalashtirish manbasi ko‘rsatilgan holda) yoki chop etmaslik ekspert tomonidan aniq ko‘rsatilishi kerak.

#### **Izoh:**

- taqdim etilgan o‘quv adabiyoti baholash mezonining 1-bandidagi mezon talablariga to‘g‘ri kelmagan taqdirda ekspert tomonidan qolgan mezonlar bo‘yicha baholash amalga oshirilmaydi o‘quv adabiyoti talabgorga qaytariladi;

- baholash natijalariga ko‘ra 90 dan 100 ballgacha to‘plagan o‘quv adabiyotlari nashr etishga tavsiya etiladi;

- baholash natijalariga ko‘ra 89 va undan past ball to‘plagan o‘quv adabiyotlari nashr etishga tavsiya etilmaydi hamda ekspertning yakuniy xulosasi bilan birga qayta ishlash uchun muallifga qaytariladi.